

"O'zkimyosanoat" AJ xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar deklaratsiyalandi

// 30.03.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/manfaatlar-tuqnashuvi-deklaratsiyasi>



"O'zkimyosanoat" AJning "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablari asosida jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishning tartibi o'rnatilgan.

Jumladan, "O'zkimyosanoat" AJning 2020-yil 19-noyabrda 103-son buyruq bilan tasdiqlangan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida Jamiyatning boshqaruv a'zolari hamda xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo'lgan xodimlar tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklaratsiya) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan.

Mazkur siyosat talablariga muvofiq "O'zkimyosanoat" AJning jami **75 ta** mas'ul xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalar to'ldirildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xodimlar tomonidan deklaratsiya to'ldirilishida biron-bir tashkilotda moliyaviy manfaatdorligi borligi, shu jumladan, ustav kapitalida ishtirok etishi, tashkiliy-huquqiy shakli va mulk shaklidan qat'i nazar moddiy yoki nomoddiy navf olinayotganligini ko'rsatish lozim.

To'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda 9 ta mas'ul xodimlar yettita tarmoq korxonalarida Kuzatuv kengashi a'zolari ekanligi, 4 ta xodim tadbirkorlik subyektlarida o'z ulushiga ega yoki unda rahbar ekanligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, 2 nafar xodim mas'ulyati cheklangan jamiyatlarda o'z ulushlari borligi va rahbar ekanligini deklaratsiyada ko'rsatishmaganligi aniqlandi. Mazkur xodimlaraga jamiyatning "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablarini qayta tushuntirish maqsadida profilaktik suhbat o'tkazildi va bu haqda ulardan tushuntirish xatlari olindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tahlil jarayonida jamiyat xodimlariga tegishli tadbirkorlik subyektlari "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari bilan 2021-yil davomida o'zaro hamkorlikni amalga oshirilmaganligi aniqlandi.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida tushuntirish ishlari davom ettirilmoqda.